O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XALQARO ARBITRAJ QARORLARINI TAN OLISH VA IJRO ETISH

Xoliqov Abdulfayz Tolib o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti
Magistratura bosqichi talabasi
E-mail: abdulfayzxoliqov2@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasida xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish masalalari muhokama qilinadi. Xorijiy davlatlarning ushbu sohadagi tajribalari o‘raniladi hamda O‘zbekiston Respublikasida xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish bilan bog‘liq mavjud muammolar muhokama qilinib ularga yechimlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Xalqaro arbitraj, arbitraj markazi, Markaziy Osiyo, TIAC, UNICITRAL, xorijiy arbitraj qarori, tan olish va ijro etish.

Fuqarolik va iqtisodiy nizolar vujudga kelganda taraflar oldida nizoni hal qilishning ikkita yo‘li turadi. Bulardan birinchisi bu – milliy sudlar orqali nizoga yechim topish. Bu usul eng keng taraqalgan usul hisoblanadi. Ammo, ba’zida nizolarni sudgacha ya’ni, nizoni muqobil hal qilish usullarini qo‘llash taraflar uchun qulay hisoblanadi. Shu sababli, aytishimiz mumkinki, yuzaga kelgan nizolarni hal qilishning ikkinchi usuli –bu nizolarni sudga murojaat etmasdan **muqobil tartibda** hal qilishdir. Ushbu holatda taraflar sudga murojaat qilishmaydi, balki yuzaga kelgan nizoni sudga bormasdan, **nizolarni muqobil hal etishning biror-bir usulini** qo‘llagan holda hal etishadi. **Arbitraj** ham hozirda keng tarqalgan nizolarni muqobil hal qilish usullaridan biri hisoblanadi.

Arbitraj – bu taraflar o‘z nizolarini hal qilish uchun o‘zlari tomonidan tayinlagan bir yoki uchta mustaqil arbitrlardan iborat arbitrajga berish to‘g‘risidagi kelishuviga asoslangan nizolarni konsensual hal qilish jarayoni. Arbitraj an’anaviy sud tizimidan tashqarida nizolarni hal qilish usuli bo‘lib, unda majburiy qaror qabul qilish uchun ishtirokchilar tomonidan hakam sifatida tanilgan xolis uchinchi shaxs tanlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual hamda Iqtisodiy protsessual kodeksilarida xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish uchun qo‘yilgan talablar aniq belgilab berilgan.

Fuqarolik protsessual kodeksining 42-bobida chet davlat sudlarining va chet davlat hakamlik sudlarining **(arbitrajlarining)** hal qiluv qarorlarini tan olish hamda ijro etish masalalari aniq belgilab berilgan. Arbitrajlarining fuqarolik nizolari bo‘yicha chiqargan hal qiluv qarorlari O‘zbekiston Respublikasining **fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlari tomonidan** tan olinishi hamda ijroga qaratilishi mumkin. Xorijiy arbitraj hal qiluv qarori, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, u qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran **uch yil muddat ichida** majburiy ijroga qaratilishi mumkin. Xorijiy

arbitraj hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi ariza hal qiluv qarori foydasiga chiqarilgan nizo tarafi tomonidan qarzdorning yashash joyidagi yoki turgan joyidagi sudga, agar yashash joyi va turgan joyi noma’lum bo‘lsa, uning mulki turgan joydagi sudga beriladi. Xorijiy arbitraj hal qiluv qarorini tan olish hamda ijroga qaratish to‘g‘risidagi ariza yozma shaklda beriladi va undiruvchi yoki uning vakili tomonidan imzolangan bo‘lishi kerak.

Arizada ariza berilayotgan sudning nomi, xorijiy arbitrajining nomi va joylashgan yeri, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), yashash joyi yoki turgan joyi (pochta manzili), shuningdek, agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo‘lsa, vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, undiruvchi e’tirof etilishini va ijro etilishini iltimos qilayotgan xorijiy arbitrajining hal qiluv qarori haqidagi ma’lumotlar va boshqa shu kabilar ko‘rsatilishi kerak. Shuningdek, arizada arbitrajining undiruvchi tan olinishi va ijroga qaratilishini iltimos qilayotgan hal qiluv qarorining chet davlat yoki O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi, hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirganligi to‘g‘risidagi rasmiy hujjat, agar bu qaror matnining o‘zidan kelib chiqmasa, hal qiluv qarori ilgari tegishli chet davlat hududida ijro etilgan bo‘lsa, uning ijro etilganligi to‘g‘risidagi hujjat, hal qiluv qarori o‘z zarariga chiqarilgan va protsessda ishtirok etmagan taraf ishni ko‘rib chiqish vaqti va joyi to‘g‘risida o‘z vaqtida hamda tegishli tarzda xabardor qilinganligiga oid hujjat, vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnoma yoki boshqa hujjatlar ilova qilinishi kerak. Agar arizada mazkur keltirib o‘tilgan ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa sud arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni undiruvchiga qaytarish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Arizani qaytarish uchun asos bo‘lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin undiruvchi sudga umumiy tartibda yangidan ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Xorijiy arbitrajining hal qiluv qarorini ijro etish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan arbitrajining hal

qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risida ajrim chiqargan sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 31-moddasida chet davlat sudlari va arbitrajlarining qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish to‘g‘risidagi ishlar jumlasiga tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish chog‘ida yuzaga keladigan nizolar bo‘yicha chet el arbitrajlari tomonidan qabul qilingan qarorni tan olish hamda ijroga qaratish to‘g‘risidagi ishlar kirishi belgilangan. Shuningdek, ushbu kodeksning 33-bobida chet davlatlar sudlarining va arbitrajlarining hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish tartibi nazarda tutilgan. **chet el arbitraji** deganda chet davlatning taraflar o‘rtasidagi nizoni hal etish uchun doimiy yoki vaqtincha asosda faoliyat ko‘rsatadigan nodavlat tashkiloti tushuniladi. Chet el arbitrajining hal qiluv qarori, qonuniy kuchga kirgan paytdan e’tiboran uch yil muddat ichida, tan olish va ijroga qaratish uchun taqdim etilishi mumkin. Chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi ariza arizachi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga qarzdorning joylashgan yeri yoki yashash joyi bo‘yicha yoxud, agar qarzdorning joylashgan yeri yoki yashash joyi noma’lum bo‘lsa, qarzdor davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joy bo‘yicha beriladi. Shu bilan birga, ushbu bobda arbitraj qarorlarini tan olish va ijro qilish uchun beriladigan arizaning shakli va mazmuniga qo‘yilgan talablar, unga ilova qilinadigan hujjatlar aniq belgilab berilgan.

Chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi ariza, iqtisodiy sudga kelib tushgan kundan e’tiboran **olti oydan** oshmagan muddatda sud majlisida ko‘riladi[2].

Yuqoridagilardan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida xalqaro arbitraj

[1] O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 364-372-moddalari, https://old.lex.uz/docs/-3517337#-3525302.
[2] O‘zbekiston Respublikasi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, https://old.lex.uz/docs/-26477#-26564.

qarorlarini tan olish va ijro etish bilan bog‘liq protsesslarda, sudyalarga amaliyot, xorijiy tajribalar kam o‘rganilganligi uchun, ma’lum bir kamchiliklarga yo‘l qo‘ymoqdalar. Shuning uchun, sudyalarning huquqni qo‘llash jarayonida malakasini oshirish maqsadida malaka kurslari tashkil etish lozim. Bu malaka kurslarida sudyalarga, ham tan olish va ijro etishga doir huquqni qo‘llash amaliyoti, ham xorijiy davlatlar tajribalari o‘rgatilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shi bilan birga, xorijiy davlatlarda mavjud mexanizmlarni tahlil qilish orqali arbitraj va chet el sud qarorlarini tan olish va ijro etish bilan bog‘liq ishlarni javobgarning yashash joyi yoki mol mulki joylashgan joyi bo‘yicha emas, balki Oliy sudda ko‘rib chiqilishini taklif etaman.

Bundan kutilayotgan ijobiy o‘zgarishlar – chet el sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha ariza topshiruvchi tomon javobgarning yashash manzili, agar yashash manzili mavjud bo‘lmasa, uning mol mulki turgan joyni aniqlash bilan bog‘liq sarsongarchiliklari oldi olinadi. Natijada to‘g‘ridan to‘g‘ri Oliy sudga arizani topshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday tartib, Ukraina qonunchiligida mavjuddir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // www.lex.uz;

2.O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi // www.lex.uz;

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi // www.lex.uz;

4. O‘zbekiston Respublikasi “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonuni // www.lex.uz;

5. Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards, New York, 10 June 1958, United Nations, Treaty Series, Vol. 330, 3;

6. European Convention on Intyrnational Commercial Arbitration, Geneva, 21 April 1961, United Nations, Treaty Series, Vol. 484, 349;

7. Explanatory Note by the UNCITRAL secretariat on the 1985 Model Law on International Commercial Arbitration (as amended in 2006);

8. Explanatory Note by the UNCITRAL Secretariat on the Model Law on International Commercial Arbitration (1985);

9. Final Act of the United Nations Conference on International Commercial Arbitration (E/ CONF.26/8/Rev.1);

10. Geneva Convention on the Execution of Foreign Arbitral Awards, Geneva, 26 September 1927, League of Nations, Treaty Series, Vol. 92, 301;

11. ICC Internal Rules of the Court of Arbitration 1980, in force as from 1 March 1980 ICC Rules of Arbitration of the International Chamber of Commerce, in force as from January 2012;

12. ICC Rules of Cociliation and Arbitration 1975, in force as from 1 June 1975;

13. Interim report on the survey relating to the legislative implementation of the 1958 New York Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards, Note by the Secretariat (A/CN.9/585).